



G'AFUR G'ULOMNING "NETAY" QISSASI – YOZUVCHI IJODINING PILLAPOYASI SIFATIDA

¹Xalbayeva Ozoda Alimjan qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti o'zbek tili adabiyoti ta`lim yo'nalishi talabasi,

²Naurizbaeva Dilfuza Janabay qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti o'zbek tili adabiyoti ta`lim yo'nalishi talabasi,

³Yesenova Turdigul Shinibek qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti o'zbek tili adabiyoti ta`lim yo'nalishi talabasi.

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p2-67>

ARTICLE INFO

Received: 16th February 2023

Accepted: 26th February 2023

Online: 27th February 2023

KEY WORDS

G'afur G'ulom, qissa, "Netay", ijtimoiy davr, ayol timsoli, muhit.

ABSTRACT

"Netay" qissasi o'quvchi onggi va shuuriga ta'sir etmay qolmaydi. Qissani o'qigan kitobxon nazarimda, hozirgi kunimizga shukronalik keltiradi. Yoshgina qiz taqdirining bunchalar ayanchli ekanligi shunchalar keng yoritib ochib berganki, bir qiz orqali sha davr ayollarining ahvolini tasavvur qilavering.

"Netay" qissasida ijtimoiy davr bosh qahramon taqdirining fojiali bo'lishiga olib keladi. Qissada yozuvchi inson va jamiyat munosabatlari masalasini ancha keng yoritadi. U har qanday notinchlikni qattiq qoralab, "Otalar o'g'illarini, onalar qizlarini tanimagan bir musibat kunlar" da ham chin insoniy fazilatlar saqlanib qolishi va otalik hissining qadrdon va lazzatli tuyg'ulari zinhor millat tanlamasligiga diqqat qaratadi.

Qissa qahramonini men baxtsiz bir qiz Nazmiga, chorasis Zebiga qiyos qilgan bo'lar edim. Yozuvchi xuddi ularning taqdiridan bir chimdim-bir chimdim olgandek umumiyl qilib juda chiroyli tasvirlab beradi.

Muhit Netayxонни ko'chaga haydab soladi. Topgan puli "kundalik maishatini ming qiyinchilik bilan qoplaydigan" oddiy rus ishchisi Semyon uni uyiga olib ketadi. Xotini ikkalasi uni boqib, yuvib, tarab, voyaga yetkazadi. Afsuski, ilgari "xudo bersin" deb qizchaga qiyon boqmagan Samad va Valixo'ja boylar Semyonni dinni buzishda, qiz o'g'irlashda ayplashadi. Undan Netayni tortib olishib, Semyonni zavoddan haydatishadi. Amal, boylik uchun Netayni amirga tortiq qiladilar. G'afur G'ulom ham islovatxona hayoti, fahsh dunyo tasviri orqali insoniylikni oyoqosti qiluvchi razil odamlarni ko'rsatadi. Bu masala Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanida ham o'ziga xos tarzda badiiy talqinini topgan. Demak, "Netay" qissasida G'afur G'ulom jamiyatning katta illatlaridan birini qalamga oladi. Yozuvchi "yomon xonning zulmi"ni, mingboshilar, shahar qozilar, gubernatorlarning zo'ravonligini qahr-g'azab bilan fosh etadi va ko'ngillari yig'lagan, yuzlari kulgan, qalblari haqoratlardan qonagan ayollarni himoya qiladi.

Asardagi Netayxon tilidan kuylangan ajib bir mung ham qissaga o'zgacha joziba baxsh etib, kitobxon qalbini toshirib yuboradi:

To'zmayin men bu alamga xor-u zor o'ldim netay,

Ochmayin bir g'uncha so'lgan navbahor o'ldim netay.



Har binafsha sabz bargi birla xandon bu kecha,
Toptalib qolgan xazonday beviqor o'ldim netay.

Ayrim tadqiqotchilar bisyor qayd qilishganidek, qissada rus ishchisi obrazi yaratilganligi muhim emas. Muhimi, Semyon va uning xotinidagi qaynoq mehr-shafqat tuyg'ulari, bolajonlilik xislatlarining nosir tomonidan alohida mehr-muhabbat bilan chizilganligidadir. Zero, G'afur G'ulom ham Zebixon, Po'ltaxonlarning baxtsiz turmushidan, ko'ngillaridagi tuyg'ulardan, ularni qafaslarga qamashga olib kelgan vaziyatdan, istak-tilaklarning bo'g'ilayotganligidan, haqoratlangan qalblaridan otilib chiqayotgan yig'ilari tosh ko'ngillarga yetib bormaganidan so'zlamoqchi ekanligini lirik chekinishlarda goh oshkor, goh majoziy tarzda so'zlaydi.

Sargardonlik tufayli Qo'qon ko'chalarida tentirab yurgan yetim qiz Netay bir burda non ilinjida odamlar qo'liga qaraydi. Biroq "Xudo bersin", - degan kalomdan boshqasini eshitmaydi. Hatto unga ayrimlar vahshiy niyat bilan nazar soladilar. Qissada kishilar zo'rg'a kun kechirayotgan, xalqning ahvoli nihoyatda nochor bo'lgan davr manzaralari ana shu tariqa jonlantiriladi. Haqli savol tug'iladi. Tasvir mantig'ining o'zi G'afur G'ulomning ijodiy kontseptsiyasiga xos qarama-qarshi qo'yib qiyoslash uslubiga muvofiq tarzda Semyon obrazini talab qilmaydimi? Dukchi eshon g'azotining mohiyatini yaxshi anglagan kishi adibning Rossiyaga xos ikkinchi manzarani, ya'ni oddiy rus kishilarini tasvirlash orqali, ulardagi mahalliy millat vakillariga bo'lgan munosabatni ko'rsatish bilan nosir masalani ilmiy jihatdan ham to'g'ri asoslashga intilganligini anglaydi.

Chunki, adib qissada qo'yilgan masalani nafaqat badiiy, balki tadqiqot yo'li bilan ham yechishga harakat qilgan. Asarda tirikchiligi zo'rg'a o'tayotgan, farzandlaridan bevaqt ajralgan qalbi o'ksik Semyon ko'prik tagida beozor uqlab yotgan qizaloqqa achinish barobarida farzandlariga vaqtida bera olmagan, qalbining allaqayerida saqlanayotgan, sekin-asta unutila boshlagan tuyg'ularini tiriltirib yuboradi. Bu otaning farzandga bo'lgan mehri, shafqati, muhabbati, ardog'i edi.

Afsuski, bu go'zal tuyg'ularni Samad, Saidrahimboy, Valixo'ja boylar to'g'ri tushunmaydilar. Natijada Netayning taqdirini tashqi muhit tomonidan yaratilgan vaziyat hal qilib, johil, nafs iskanjasidagi kishilar masalani zo'rlik va zulm bilan hal qiladilar. Mansabparastlik, ta'magirlilik, shafqatsizlik, nafs iskanjasidagi evrilishlar qizning taqdirini fojiali yakunlashga olib keladi va u fohishaxonaga tashlanadi. Garchand, qissada xarakterlar ruhiyati yetarlicha ochilmagan, voqealar mantig'i ancha kuchli, tarixiy faktlar bisyor, kompozitsion tarqoqlik mavjud bo'lsa-da, asarning yechimi to'g'ri hal qilingan. Chingiz Aytmatov ta'biri bilan aytganda: "Tabiat bilan umumiy til topishgan taqdirdagina insoniyat o'z imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqara oladi". Shu ma'noda, G'afur G'ulom inson kayfiyatini, kechinmalarini, ruhiy tug'yonlarini aks ettirishda tabiat manzaralaridan mohirona foydalangani shubhasiz.

Asarda nafaqat personajlar balki, davr ham yaxshi yoritib berilgan. Yon-atrofdagi bo'layotgan voqealardan xabarsiz, betashvish asrab olgan ota-onasining bag'rida o'sayotgan Netayxonning bir zumda qarindoshi paydo bo'lib qolishi taqdirning achchiq sovg'asi edi. Vaholanki, bu qarindosh mehr-muhabbat, jigargo'shalik istab emas, o'zining jirkanch niyatida kelganini bu bechora qiz bilmas edi.



Qissada rus xalqiga mansub Semyon oilasi oddiy bechora musulmon farzandiga mehr ko'rsatishi tub insoniylik tuyg'ularidan dalolat beradi. Insonparvarlik, mehr-oqibat, muhabbat kabi tuyg'ular millat, din ayirmasligini ko'rsatib beradi.

Asar "Savr oylarining uzluksiz yomg'irlari..." satrlari bilan boshlanar ekan, yozuvchining peyzaj tasvirini yaxshi ochib bergenini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda "Xushvaqt,xushvaqt..." deya chug'urlayotgan navro'ziy bedanalarga qarama-qarshi tarzda Poyqovoq ko'chasining chirkin, fahshga botgan tasvirlari berilgan. Bu ko'chaning mashhur Po'ltaxon, Zebixon, Xoldorxon, Saodatxon, Ma'rifikatxonlari bu ko'chaning qalblari. Ular uchungina she'rlar yoziladi, moli bo'lmasa jonlari tikilar edi. Ko'chadagi odatdagidek sho'x va bo'ydoq qahqaha bu yerdagi qabohatga huddi hamohangdek edi.

Qissadagi amir Olimxon tasviriga alohida urg'u berish zarur. Amir Olimxon kelayotgan poezd – ajdarning komiga o'xshatiladi-yu, uning ichiga kirib tomosha qilsak degan niyat tug'iladi. Amir joylashgan vagonning boshdan-oyoq yashil rangda ekanligi va tashqi tarafiga oltin harflar bilan "La iloho..." so'zlarining yozib qo'yilishi amirnind davlati qanchalik behisob ekanligidan dalolat beradi. Amirning to'satdan tonggi nonushtaga qaymoq yegisi kelib qolgani-yu, butun boshli poezd bir qaymoq uchun orqaga qaytishi, bu vaqtda amirning o'zi yangi mashuqasi bilan tonggi uyquda yotishi kitobxon nafratini qo'zg'aydi.

Bu vaqtda Netayxon hayot tashvishlaridan bexabar, suykli ota-onasining bag'rida o'sib-ulg'ayar ekan, unga umuman begona bo'lgan kishilar uning taqdirini hali qilib bo'lishgan edi. Uning yaqin vaqtarda amirga tortiq qilinishi tushiga ham kirmagan edi.

Asarda Andijon madrasasi tasviri ham berib o'tiladi. Unda yosh mullavachchalarni yig'ib: "Yana ham janob oqposhsho bizday sartiya ro'y siyoh fuqarolarni siyladilar. Bo'lmasa, bulut Farg'onani o'qqa tutib, hammamizni yer bilan yakson qilar edi", - nutq irod qilayotgan domla tasvirlangan edi. Bunda dinning qo'shtirnoq ichida naqadar sof va kuchliligin ko'rishimiz mumkin. O'zlarini to'g'ridan to'g'ri oqpodshoning quli ekanligini tan olib ma'ruza qilishi, aynan o'sha davr xususiyatini ochib bergen.

Xulosa qilib aytganda, Netayning bu holga tushishida muhit aybdor. Davrning muhitning qoloqligi, tubanligi bunga sababchi. Asardagi Semyon obrazi, ya'ni rus oilasi asarga bekor qo'shilmagan. O'z davrida nechta baxtsiz qiz Nazmilar, begunoh va chorasiz Zebilar bo'lgani kabi, netayxon ham davr, muhit qurbanidir. Amir-u ulamolar, katta zodogonlarga navbat hamisha birinca bo'lgan, va necha ming qizlar ularga sharaf ila tortiq qilingan. Netayxon ham huddi shunday edi. Saidrahimboy Olimxon ko'nglini olishi, yuqori martabaga erishishi uchun kimnidir qurbanlikka keltirishi zarur edi.

References:

1. G'afur G'ulom. Netay.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983.
2. Nazarov B. G'afur G'ulom olami.-Toshkent: "Fan", 2004.
3. Normatov U. G'afur G'ulom poeziyasining estetik prisiplari. "O'zbek adabiyoti masalalari"-Toshkent: "O'zadabiyinashr", 1959.
4. Mamajonov S. Uslub jilolari.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1972.
5. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 5 t. - Toshkent : Fan, 1986.
6. <http://ziyonet.uz/>
7. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/1-ziyouz-com-kutubxonasi>



EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE

Innovative Academy Research Support Center

UIF = 8.2 | SJIF = 6.051

www.in-academy.uz

8. <https://arboblar.uz/uz/people/gafur-gulyam>
9. <https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/gafur-gulom>
10. <https://ilmlar.uz/gafur-gulom-tarjimai-holi-g-gulom-biografiyasi/>